



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



ZIYORAT TURIZMINING XALQARO DARAJADAGI SALOHİYATINI OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING AHAMIYATI

Uzaqov Jamshid Norboyevich

ЗНАЧЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ПОВЫШЕНИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Узаков Жамшид Норбоевич

THE IMPORTANCE OF GOVERNMENT POLICY IN ENHANCING THE INTERNATIONAL POTENTIAL OF PILGRIMAGE TOURISM

Uzakov Jamshid Norboyevich

Received: February 6, 2026 Revised: February 10, 2026 Accepted: February 16, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya. Maqola ziyorat turizmining xalqaro darajadagi salohiyatini oshirishda davlat siyosatining o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi, ziyorat turizmining jahon turizm bozoriga integratsiyalashining mintaqaviy iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Dunyodagi rivojlangan ziyorat turizmi mamlakatlari, shuningdek, O'rta Osiyodagi muhim turistik hududlar, ayniqsa O'zbekistonning rivojlanish salohiyati tahlil qilingan. Jahon turizm tashkiloti va O'zbekiston Respublikasining Turizm qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida, ziyorat turizmi iqtisodiyotga qo'shgan hissa va uning rivojlanishida xalqaro hamkorlikning o'rni yoritilgan. Jahon turizm bozoriga ziyorat turizmini integratsiyalash bilan O'zbekiston mintaqalari uchun iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar. jahon turizm bozori, integratsiyalash, mintaqaviy iqtisodiyot, turizm salohiyati, xalqaro hamkorlik, sayyohlar oqimi, rivojlangan davlatlar, iqtisodiy o'sish.

Аннотация. Статья анализирует роль и значение государственной политики в повышении международного потенциала паломнического туризма, а также исследует влияние интеграции паломнического туризма в мировой туристический рынок на развитие региональной экономики. В работе рассмотрен опыт стран с развитым паломническим туризмом, а также проанализирован туристический потенциал ключевых регионов Центральной Азии, в частности Узбекистана. На основе официальных данных Всемирной туристской организации и Комитета по туризму Республики Узбекистан освещён вклад паломнического туризма в экономику и роль международного сотрудничества в его развитии. Исследование направлено на выявление новых направлений экономического роста регионов Узбекистана посредством интеграции паломнического туризма в мировой туристический рынок.

Ключевые слова: Паломнический туризм, мировой туристический рынок, интеграция, региональная экономика, туристический потенциал, международное сотрудничество, туристический поток, развитие страны, экономический рост.

Abstract. The article analyzes the role and significance of state policy in enhancing the international potential of pilgrimage tourism, as well as examines the impact of integrating pilgrimage tourism into the global tourism market on the development of regional economies. The paper considers the experience of countries with developed pilgrimage tourism and analyzes the tourism potential of key regions in Central Asia, particularly Uzbekistan. Based on official data from the World Tourism Organization and the Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan, the article highlights the contribution of pilgrimage tourism to the economy and the role of international cooperation in its



development. The study aims to identify new directions for economic growth in the regions of Uzbekistan through the integration of pilgrimage tourism into the global tourism market.

Keywords. Pilgrimage tourism, global tourism market, integration, regional economy, tourism potential, international cooperation, tourist flow, developed countries, economic growth.

■ KIRISH

Jahon turizmida ziyorat turizmi barqaror talabga ega bo'lgan, madaniy-ma'naviy va iqtisodiy jihatdan yuqori salohiyatli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Muqaddas maskanlar, diniy meros obyektlari asosida shakllanadigan ushbu turizm turi nafaqat sayyohlar oqimini jalb etadi, balki hududiy infratuzilma rivoji, bandlikning oshishi va xizmatlar sektorining kengayishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ko'plab davlatlar ziyorat turizmini milliy turizm strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uning xalqaro darajadagi salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan aniq siyosat yuritmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan, jumladan, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Italiya kabi davlatlarda infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va logistika tizimini takomillashtirish, viza tartiblarini soddalashtirish, xalqaro marketing strategiyalarini qo'llash hamda ziyorat obyektlarini saqlash va boshqarishning institutsional mexanizmlari izchil yo'lga qo'yilgan. Bu yondashuv davlat siyosati, xususi sektor va xalqaro hamkorlik uyg'unligiga asoslanadi.

Respublikamizda ham so'nggi yillarda ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tarixiy-madaniy meros, islom sivilizatsiyasi markazlari va muqaddas qadamjolar yurtimizning yuqori salohiyatini belgilaydi. Davlat tomonidan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ziyorat yo'nalishidagi infratuzilmani yaxshilash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda hududiy turizm klasterlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ziyorat turizmining xalqaro darajadagi salohiyatini oshirishda davlat siyosatining ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Ziyorat turizmi jahon turizm bozorining muhim qismlaridan biri sifatida, diniy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hududlarga sayohatlarni o'z ichiga oladi. Bu turizm turi, dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy faoliyatning muhim manbai bo'lib, mahalliy iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ziyorat turizmi musulmonlar uchun muhim bo'lgan Makka, Madina, Buxoro, Xiva, Samarqand va boshqa tarixiy shaharlarga yo'nalgan sayohatlar orqali keng tarqalgan. Jahonda ziyorat turizmining rivojlangan davlatlari sifatida Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr va Indoneziyani ko'rsatish mumkin. Saudiya Arabistoni, musulmonlarning asosiy ziyorat markazi bo'lib, har yili millionlab sayyohlar Makka va Madinaga umra va haj safariga boradi. Turkiya esa, uning boy madaniy merosi va diniy ahamiyati bilan ziyorat turizmida aniq pozitsiyaga ega.

Dunyoda umumiy turizmida ziyorat turizmining salmog'i ayni vaqtda katta o'sishni ko'rsatmoqda. Butun dunyo bo'ylab turizm hajmi yil sayin oshib borayotgan bo'lsada, ziyorat turizmining ahamiyati alohida e'tirof etilmoqda. 2022-yilda jahonda turizm hajmi 1,4 trillion dollarga etgan, va bu sohaga bo'lgan talabning kundankunga ortishi natijasida, ziyorat turizmi iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shmoqda.

Jahon turizm bozori pandemiyadan keyin to'liq tiklanib, xalqaro sayohatlar 2025-yilda 1,52 milliarddan ortiq xalqaro sayohatchi bilan barcha turizm turlari bo'yicha rekord darajaga etdi va bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi⁶. Ziyorat turizmi bo'yicha ham zamonaviy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Jahon turizm tashkilotining 2025-yil tahlillarida asosiy ziyorat joylariga har yili 300–330 million kishi tashrif buyurgan holda diniy ziyoratlarda qatnashuvchi sayyohlar jahon turizmi ichki oqimining muhim qismi bo'lib qolmoqda⁷.

Turizm sohasining rivojlanishi, ayniqsa ziyorat turizmi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu turizm turi orqali mamlakatlar nafaqat moliyaviy daromad olishadi, balki mahalliy xo'jaliklarni ham rivojlantirishadi, bu esa ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani takomillashtirishga olib keladi.

■ MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ziyorat turizmini jahon turizm bozoriga integratsiyalash va uning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri masalalari so'nggi yillarda jahon va O'zbekistonda faol o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishda xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, R. Timothy va D. Olsen tomonidan ziyorat turizmi global turizmning barqaror rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida baholanib, uning hududiy iqtisodiyot va madaniy almashinuvga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan⁸. J. Collins-Kreiner tadqiqotlarida esa ziyorat turizmining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, barqaror turizm konsepsiyasi bilan uyg'unligi va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Muallif ziyorat turizmini xalqaro turizm bozoriga integratsiyalash hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi⁹. O'zbekistonda N. Ochilov va M. Sirojiddinova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda diniy turizmni rivojlantirish istiqbollari, uning iqtisodiyotga ta'siri va xalqaro turizm bozoridagi o'rni tahlil qilingan¹⁰. Shuningdek, S. Abdullayeva O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning marketing, infratuzilma va institutsional jihatlarini o'rganib, mamlakatning boy diniy-madaniy merosi

⁶ https://www.untourism.int/un-tourism-world-tourism-barometer-data?utm_source

⁷ https://hotelagio.com/religious-tourism-statistics/?utm_source

⁸ Timothy D., Olsen D. Tourism, Religion and Spiritual Journeys. Routledge, 2006.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

⁹ Collins-Kreiner N. Researching pilgrimage tourism: Continuity and transformations. Annals of Tourism Research, 2020.

¹⁰ Scientific Journal of Tourism and Hospitality, 2023 <https://scientific-jl.com>



xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh mahsulot sifatida baholagan¹¹.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ziyorat turizmini jahon turizm bozoriga integratsiyalash sharoitida uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan. Tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslash, omilli tahlil va qiyosiy tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga qadar ziyorat turizmini tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni turizm faoliyatining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi hamda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun institutsional muhit yaratgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son, 2025-yil 19-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-348-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-

yanvardagi 6-son "Umra plyus" ziyorat turizmi dasturini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazkur yo'nalishda tizimli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, investitsion va tashkiliy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda ziyorat turizmini kompleks rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy asosni yanada mustahkamladi.

So'nggi yillarda ziyorat turizmi jahon turizm bozorining eng tez rivojlanayotgan turlaridan biri sifatida shakllanmoqda. "UN Tourism" ma'lumotlariga ko'ra, 2024–2025 yillarga kelib dunyo bo'yicha xalqaro sayyohlar soni 1,5 milliard nafardan oshgan bo'lib, shundan har yili 300–330 millionga yaqin sayyoh diniy va ziyorat maqsadida safar qiladi. Bu umumiy xalqaro turizm oqimining qariyb 20 foizini tashkil etadi. Ziyorat turizmi orqali shakllanayotgan global daromadlar hajmi esa yiliga yuzlab milliard AQSh dollariga baholanmoqda¹².

Ziyorat turizmi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu turizm turi mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim drayveri hisoblanadi. Masalan, Saudiya Arabistonida haj va umra safarlari orqali turizm daromadlari yiliga 20 milliard dollardan ortiqni tashkil etadi. Turkiyada esa diniy va madaniy turizm umumiy turizm daromadlarining 10–12 foizini shakllantiradi¹³.

Viza rejimining liberallasuvi
Ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalar
Milliy ziyorat turizmi brendining global targ'iboti va xalqaro hamkorlik
Ziyorat turizmi mahsulotlarini diversifikatsiyalash
Ziyorat turizmini rivojlantirish
Ekologik va barqaror turizmni qo'llab-quvvatlash
Gastronomik va tibbiy turizmni rivojlantirish
Xavfsiz ziyorat turizmi va sifatli xizmatlar

1-rasm. O'zbekistonda milliy ziyorat turizm sohasini rivojlanish samaradorligini ta'minlagan davlat dasturlari ustuvorliklari¹⁴.

Tadqiqotimiz jarayonida O'zbekistonda milliy ziyorat turizm sohasini rivojlanish samaradorligini ta'minlagan davlat dasturlari ustuvorliklari takomillashtirildi. Bu jarayonlar O'zbekistonda milliy ziyorat turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni ifodalaydi, mamlakatni turistlarga yuqori sifatli xizmatlar taqdim etishni maqsad qiladi. Ustuvorliklar orasida viza rejimini soddalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, yangi turizm mahsulotlarini yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi strategiyalar mavjud. Shuningdek, gastronomik va tibbiy turizmning rivojlanishi va xavfsiz sayohatni ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi O'zbekistonni ziyorat turizmi bo'yicha raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 7 million nafardan oshgan, shundan muhim qismi madaniy va ziyorat turizmi hissasiga to'g'ri keladi. Samarqand, Buxoro Xiva shaharlari asosiy ziyorat turizmi markazlari sifatida shakllangan¹⁵. Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida so'nggi yillarda qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, 2026–2027 yillarda Malayziya va Indoneziyadan ziyoratchilar oqimini 100 ming nafarga etkazish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Ushbu dastur doirasida har bir xorijiy ziyoratchi uchun 100 AQSh dollari miqdorida subsidiyalari ajratilishi belgilangan¹⁶.

¹¹ Journal of Management and Service Innovation, 2024 <https://inlibrary.uz>

¹² UN Tourism World Tourism Barometer, 2025 <https://www.unwto.org>

¹³ World Travel and Tourism Council (WTTC), 2024 <https://wtcc.org>

¹⁴ Muallif ishlanmasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2025 <https://stat.uz>


¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-yanvardagi "Umra plyus" ziyorat turizmi dasturini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6-son qarori. <https://lex.uz>



O'zbekistonning boy ziyorat turizmi resurslarini xalqaro miqyosda jahon mamlakatlariga keng targ'ib qilish, mamlakatga tashrif buyurayotgan xorijiy ziyoratchilar oqimi salmog'ini oshirish maqsadida qator tashkiliy-huquqiy va me'yoriy hujjatlar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston

Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-348-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi" tashkil etildi. Qaror bilan Turizm qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari, tashkiliy tuzilmasi, maqsad va vazifalari belgilab berildi¹⁷.

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining TASHKILIY TUZILMASI



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi.

Turizm qo'mitasining qayta tashkil etilishi istiqbolda turizm sohasini iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim va yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu institutsional islohotlar turizmni, xususan ziyorat turizmini tizimli va barqaror rivojlantirish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish hamda

mintaqaviy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkonini beradi. Ziyorat maskanlarini jahon miqyosida keng targ'ib qilish, xalqaro turizm bozoriga integratsiyalash va xorijiy ziyoratchilar oqimini oshirish orqali xizmatlar eksporti hajmini kengaytirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish uchun qulay sharoitlar shakllanadi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalari.

T/R	Vakolatxonalar	Faoliyat olib boriladigan davlatlar	Shtat birliklari
1.	Abu Dabi shahri	Ko'rfaz davlatlari	3
2.	Jakarta shahri	Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari	3
3.	Parij shahri	Yevropa davlatlari	5
4.	Pekin shahri	Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya, Yaponiya	5
5.	Nyu-York shahri	AQSH, Kanada, Lotin Amerikasi davlatlari	3

Qarorga muvofiq Turizm qo'mitasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalari tashkil etilgan bo'lib, ular zimmasiga milliy turistik mahsulotlarni, jumladan ziyorat turizmi yo'nalishlarini xalqaro bozorlarda faol targ'ib qilish, xalqaro turizm ko'rgazmalari va yarmarkalarda milliy turizm salohiyatini namoyish etish,

ziyosat maskanlari bo'yicha maxsus turpaketlarni targ'ib qilish, turistik oqim dinamikasi va bozor talabini doimiy tahlil qilib borish orqali O'zbekistonning ziyorat turizmi imkoniyatlarini jahon miqyosida keng targ'ib etish kabi vazifalar belgilangan.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va <https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>


turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-348-son qarori.



Shuningdek, turizm sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish, zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish, turistik klasterlar faoliyatini rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali milliy turistik mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi oshiriladi. Natijada, ziyorat turizmini rivojlantirish hududiy xizmatlar bozori faolligini kuchaytirib, mehmonxona xo'jaligi, transport, savdo va hunarmandchilik tarmoqlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi hamda mamlakatning yalpi hududiy mahsuloti o'sishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Ziyorat turizmining mintaqaviy salohiyatini oshirish hududiy resurslardan oqilona foydalanish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda xizmatlar sifatini

xalqaro talablar darajasiga olib chiqishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot jarayonida ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish omillari kompleks tahlil qilinib, tizimli yondashuv asosida institutsional, iqtisodiy va intellektual komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Mazkur ilmiy tahlil natijasida ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat, xususiy sektor hamda ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmini aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu modelda davlatning tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi roli, xususiy sektorning iqtisodiy qiymat yaratuvchi funksiyasi hamda ilmiy sektorning innovatsion va analitik ta'minoti yagona tizim doirasida uyg'unlashtirildi.



3-rasm. Ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishning “Davlat–xususiy sektor–ilmiy hamkorlik” modeli¹⁸.

Taklif etilgan konseptual yondashuv ziyorat turizmining hududiy raqobatbardoshligini oshirish, ziyoratchilar oqimini barqaror ko'paytirish, bandlikni kengaytirish hamda mintaq iqtisodiyotiga multiplikativ ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan konseptual yondashuv quyidagi qo'shimcha iqtisodiy samaralarni ham ta'minlaydi:

➤ Hududiy byudjet daromadlarining oshishi sifatida turistik xizmatlardan tushadigan soliqlar va yig'imlar hajmi ortadi;

➤ Mahalliy tadbirkorlik faolligining kuchayishi bilan savdo, hunarmandchilik, transport va umumiy ovqatlanish sohalarida yangi biznes subyektlari paydo bo'ladi;

➤ Investitsion jozibadorlikning ortishi barobarida infratuzilma va servis loyihalariga ichki va tashqi sarmoya oqimi ko'payadi;

➤ iqtisodiyotning faqat bir yoki ikki tarmoqqa bog'liqligi kamayib, xizmatlar sektori ulushi kengayadi;

➤ turizm bilan bog'liq ta'minot tarmoqlari rivojlanib, qo'shimcha qiymat yaratish hajmi oshadi.

Natijada, O'zbekistonning tarixiy va diniy merosi jahon sayyohlari uchun jozibador turistik mahsulot sifatida namoyon etiladi, ziyorat turizmi va boshqa turizm yo'nalishlari bo'yicha milliy turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy sayyohlar va ziyoratchilar oqimini ko'paytirish hamda hududlar iqtisodiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi samarali institutsional va marketing mexanizmlari shakllantiriladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Ziyorat turizmi jahon turizmi bozorida barqaror va yuqori talabga ega segment hisoblanadi. Uning asosiy

¹⁸ Muallif ishlanmasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



ustunligi — mavsumiylikka kam bogʻliqligi, maʼnaviy motivatsiyaga asoslangani va doimiy ziyoratchilar oqimining mavjudligidir. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, ziyorat turizmi muvaffaqiyati infratuzilma, logistika, xavfsizlik, xizmat sifati va davlat siyosati uygʻunligiga bevosita bogʻliq. Natijalar shuni koʻrsatadiki, ziyorat turizmini jahon turizm bozoriga integratsiyalash mintaqaviy iqtisodiy oʻsishni taʼminlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro turizm oqimining oshishi hududiy infratuzilmani rivojlantiradi, aholi bandligini taʼminlaydi va valyuta tushumlarini koʻpaytiradi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ziyorat turizmi asosida turistik klasterlarni shakllantirish mintaqaviy iqtisodiy oʻsishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Ziyorat turizmining rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiyotga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Avvalo, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, mehmonxonalar, transport, umumiy ovqatlanish va savdo xizmatlarining kengayishi orqali yangi ish oʻrinlari yaratiladi, turizm sohasida yaratilgan har bir yangi ish oʻrni bilan bogʻliq holda xizmat koʻrsatish va savdo tarmoqlarida yana qoʻshimcha ish oʻrinlari shakllanadi.

Xulosa sifatida taʼkidlash joizki, ziyorat turizmini xalqaro darajada rivojlantirish Oʻzbekiston mintaqalarining nufuzini oshirish, mamlakatning boy ziyorat turizmi resurslarini jahon mamlakatlariga keng targʻib qilish hamda milliy turizm salohiyatini global bozorga samarali olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur jarayon pirovard natijada ziyorat maskanlariga xorijiy ziyoratchilar oqimini koʻpaytirish, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish va turizm xizmatlari eksportini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun ziyorat turizmini rivojlantirishning institutsional, infratuzilmaviy va marketing mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

➤ Davlat tomonidan mintaqalardagi infratuzilmaviy shakllanmagan ziyoratgohlarni zamonaviy inshootlar bilan taʼminlash maqsadida davlat byudjeti mablagʻlarini yoʻnaltirish, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlariga ziyorat maskanlarini mulk huquqisiz foydalanishga berish orqali faoliyat koʻrsatmayotgan ziyorat maskanlarining ishlashini taʼminlash uchun samarali mexanizmlar ishlab chiqish;

➤ Ziyorat turizmi rivojlangan davlatlar universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda “Pilgrimage Tourism Research Center” konsorsiumini tashkil etish. Ushbu ilmiy markaz ziyorat turizmi iqtisodiyoti, barqaror turizm, marketing va turistik klasterlar samaradorligini kompleks oʻrganadi hamda ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqadi;

➤ Oʻzbekiston va ziyorat turizmi rivojlangan davlatlar oʻrtasida “ziyosat turizmi klasteri” modelini joriy etish. Bunda turizm operatorlari, aviakompaniyalar, mehmonxonalar va ziyorat maskanlari yagona logistika va marketing tizimiga birlashtiriladi. Ushbu klaster modeli hududlararo turist oqimini boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

➤ Xorijiy mamlakatlarda “Uzbekistan Pilgrimage Week” tadbirlarini tashkil etish Oʻzbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini xalqaro

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

miqyosda tizimli ravishda ilgari surishning samarali vositasi hisoblanadi. Bunda nafaqat keng tanilgan ziyoratgohlar, balki hozircha asosan mahalliy aholi tomonidan ziyorat qilinayotgan, ammo tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida yuqori maʼnaviy-tarixiy mavqega ega ekani aniqlangan maskanlarni ham xorijiy jamoatchilikka ilmiy dalillar asosida taqdim etish zarur. Tadbirlarni ziyorat turizmi rivojlangan hamda islomiy merosga yuqori qiziqish mavjud boʻlgan davlatlarda oʻtkazish maqsadga muvofiq. Ushbu mamlakatlarda tashkil etiladigan haftalik doirasida:

- Oʻzbekiston ziyorat maskanlarining tarixiy ildizlari, manbalardagi qaydlari va ulamolar merosi haqida ilmiy taqdimotlar;

- Turoperatorlar uchun maxsus B2B uchrashuvlar va ziyorat yoʻnalishlari taqdimoti;

- Ulamolar, tadqiqotchilar va diniy soha ekspertlari ishtirokida davra suhbatlari;

- Ommaviy axborot vositalari hamda bloggerlar uchun media-turlar;

- Ziyorat turizmi boʻyicha investitsiya va hamkorlik imkoniyatlarini yoritish.

➤ Ziyoratgohlar bilan bogʻliq mashhur tarixiy va diniy shaxsiyatlarni ilmiy nuqtayi nazardan chuqur tadqiq etish, ularning hayoti va merosi haqida hujjatli hamda badiiy filmlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday mahsulotlar nafaqat keng jamoatchilikning tarixiy-maʼnaviy bilimlarini boyitadi, balki xorij davlatlari jamoatchiligi, ilmiy doiralari va turizm subyektlari eʼtiboriga Oʻzbekiston ziyorat maskanlarining qadimiyligi, ilmiy ahamiyati hamda maʼnaviy merosini aniq va asosli tarzda etkazishga xizmat qiladi. Natijada mazkur audiovizual mahsulotlar xalqaro maydonda Oʻzbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini tizimli targʻib etish, xorijiy ziyoratchilar oqimini oshirish va milliy tarixiy merosning global miqyosda tan olinishini taʼminlashda samarali vosita boʻlib xizmat qiladi.

Muallif haqida / Об авторе / Author details

Uzaqov Jamshid Norboyevich–i.f.f.d., (Phd), dotsent Axborot texnologiyalari va menejment universiteti / Узаков Джамшид Норбоевич-и.ф.ф.д. (кандидат наук), доцент Университет информационных технологий и управления / Uzakov Jamshid Norboyevich–i.f.f.d., (Phd), associate professor University of Information Technologies and Management

jamshiduzakov0660@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-6420-9076>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://www.untourism.int/un-tourism-world-tourism-barometer-data?utm_source
2. https://hotelagio.com/religious-tourism-statistics/?utm_source
3. Timothy D., Olsen D. Tourism, Religion and Spiritual Journeys. Routledge, 2006.
4. Collins-Kreiner N. Researching pilgrimage tourism: Continuity and transformations. Annals of Tourism Research, 2020.



5. Scientific Journal of Tourism and Hospitality, 2023 <https://scientific-jl.com>

6. Journal of Management and Service Innovation, 2024 <https://inlibrary.uz>

7. UN Tourism World Tourism Barometer, 2025 <https://www.unwto.org>

8. World Travel and Tourism Council (WTTC), 2024 <https://wttc.org>

9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2025 <https://stat.uz>

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-yanvardagi [“Umra plyus” ziyorat turizmi dasturini amalga oshirishga qaratilgan](#)

[qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida](#)”gi 6-son qarori. <https://lex.uz>

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-348-son qarori.

12. Uzaqov Jamshid Norboyevich., Zamonaviy innovatsion shakllar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari. Innovatsion iqtisodiyot /Инновационная экономика / The innovation economy. 3-jild, 4-son, sentabr-2025. 201-bet



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz